

**O'rta maktab fizika darslarida past o'zlashtiruvchi o'qituvchilar bilan
ishlash samaradorligini oshirishda inavatsion texnologiyalardan foydalanish**

Xomidov Dilshodbek Baxodirovich
Fizika fani o'qituvchisi,
Shahrixon tumani Akademik Sarimsoqov NHM

Annotasiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda fizikani o'qitishni dolzaribligi, o'qitishda o'quvchilarga psixalogik va pedagogik nuqtai nazar bilan qarashlik va hozirgi kundagi tashkil etilayotgan variativ ta'limga olib borish yo'l-yo'riqlari yoritilgan. Bundan tashqari to'garak mashg'ulotlarni tashkillashtirishda nimalarga e'tibor berishlik haqida fikrlar yuritiladi yana shuningdek masalalar yechishda e'tiborga olish mumkin bo'lgan jixatlar esalatib o'tiladi.

Annotation: This page discusses the current condition of teaching physics, how to approach pupils from a psychological and pedagogical standpoint in teaching, and the criteria for carrying out the currently organised variety of education. Furthermore, there are suggestions for what to focus on when organising group trainings, as well as factors to consider during issue solving.

Kalit so'zlar: ta'limga, nazorat, pedagogik texnologiya, fizika, maktab, ish reja, Mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi, o'zlashtirishdagi muammolarni sabablari muammolarni bartaraf etish choralar, taklif etiladigan tavsiyalar, maktab fizika kursini yosh psixalogiyasiga moslashtirish choralaridan kelib chiqadigan afzaliklar

Key words: education, control, pedagogical technology, physics, school, work plan, current relevance of the topic, reasons of mastery problems, recommended solutions, and benefits of adapting the school physics course to youth psychology.

Hamma davrlarda shaxsning ijobjiy rivojlanishi dolzarb bo'lib kelgan. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar ishlab chiqarilmoqda. Bularning barchasidan darslarni tashkil etishda o'qituvchilarni ijobjiy hislatlaridan foydalanish, salbiy hislatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish kerak. Shu orqali jamiyatda shaxsni barkamol voyaga yetkazishni ta'minlash mumkin. hozirgi kunda bunday harakat ta'limga va tarbiyaning doimiy extiyoji bo'lib kelsmoqda. Shuning uchun darslarda har bir mavzuni o'tishda biz tarbiyalamoqchi bo'lgan o'qituvchiga dars mohiyatini, qo'llanilishini, jamiyatda o'qituvchi hayoti davomida foydalanishiga e'tibor berish kerak. Bu talablar hatto mamlakat talabi ekanligi alohida e'tirof etiladi, ya'ni "odobli, bilimdon va aqli, mexnatsevar, iymon e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir".

"Buning uchun har qaysi ota-onas ustoz va murabbiy har bir bola misolida avvalo shaxsni ko'rish zarur "Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikirlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan, komil insonlar yetib voyaga yetkazish ta'lif -tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Shunday ekan darslarda har bir bolani o'zlashtirishiga o'qituvchi ma'sul ekanligi birinchi navbatdagi ish bo'lib qoladi, chunki Bu dunyoda tabiatda ham jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qaerdadir bo'shliq bo'ladimi hech shubhasiz uni albatta, kimdir to'ldirishga harakat qiladi. Shuning uchun biz o'qituvchilar va murabbiylar doimo o'qituvchilar orasida bilimida bo'shliq qo'ymaslikka harakat qilishimiz kerak. Buyuk pedagog Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot ,yo najot -yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir "Shunday ekan o'qituvchilarga dars o'tishda ularda uchraydigan barcha omillarga to'xtalib ijobiy tomonlarini rivojlantirib dars berishlik yaxshi natija beradi. Shunday ekan darslarda har bir bolani o'zlashtirishiga o'qituvchi ma'sul ekanligi birinchi navbatdagi ish bo'lib qoladi , chunki Bu dunyoda tabiatda ham jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi.Qaerdadir bo'shliq bo'ladimi hech shubhasiz uni albatta, kimdir to'ldirishga harakat qiladi. Shuning uchun biz o'qituvchilar va murabbiylar doimo o'qituvchilar orasida bilimida bo'shliq qo'ymaslikka harakat qilishimiz kerak. Hozirgi davorda o'qituvchilarning barcha imkoniyatlarini hisobga olmay turib uni o'quv faoliyatiga muoffaqiyatli tarizda jalb etib bo'lmaydi, chunki o'qituvchi tomonidan bajariladigan har bir o'quv topshiriqi avvalo uni ijtimoiy jihatdan qondirmog'i va mustaqil ijodiy faoliyatga chorlamog'i lozim. Shularni e'tiborga olib barcha fanlardan o'qitish jarayonida o'qituvchilarni o'zlashtirish darajasi va samaradorligi eng asosiy vazifa bo'lib qoladi. Malumki bu o'zlashtirish darajasini hisobga olib, Respublikamizda D T S talablari ishlab chiqarilgan bo'lib bu talablarga muvofiq o'qituvchilarning bilim olish uchun zarur bo'lgan manbalar kiritilgan va shu orqali o'qituvchilarni kiritilgan bilimlarni o'zlashtirish darajasi ortib borishi hisobga olingan.

Bundan tashqari o'qituvchilarni ayniqsa iqtidorli o'qituvchilarni tarbiyalash ular extiyojini qondirishda hozirgi kunda juda ko'p materiallardan foydalanish mumkin . Iqtidorli o'qituvchi kim- eng avvalo o'z iqtidorini o'zi tanlagan yo'nalishda namoyon eta oladigan, DTS talablarini ortig'i bilan bajaradigan o'qituvchidir. Endi masalani ikkinchi tomonidan DTS talablariga yeta olmayotgan o'qituvchilar , ya'ni past o'zlashtirayotgan o'qituvchilarni darslardagi o'rni darslarni o'zlashtirishga ko'maklashish DTS talablariga yetkazish hozirgi kunda dolzarbligicha qolmoqda .

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olib past o'zlashtiruvchi o'qituvchilarni qobiliyatida ham boshqa o'qituvchilarga nisbatan farq qilishligini e'tiborga olish lozim. Shu maqsadda fizikani o'rgatishda fizikaviy atamalarni ma'nosini va hozirda qanday holatda ishlatilishini bildirishdan boshlash kerak deb o'ylayman. Buning uchun:

- 1) Mo'jazgina maktab fizikaviy lug'ati tuziladi.
- 2) Qiyin bo'lgan labaratoriyanlar o'rindoshlariga almashtiriladi.
- 3) Qiziqarli masalalar va hayotiy misollar tuziladi.
- 4) Fizikaviy o'yinlar tashkil etish .
- 5) Sodda asboblarni yasab kelish .
- 6) Fizikani predmetlararo bog'lanishga erishish lozim.
- 7) Kunlik kirish va chiqish testlar va savollarga jalb etish lozim.
- 8) Kompyuter texnikasini darslarga olib kirish,

Xozirgi zamon yangi pedagogik texnologiyaga binoan, o'qituvchi dars jarayonida o'qituvchilar faolligini oshirish uchun har bir darsni unumdoorigini oshirishi va har bir darsni ijodkorlik bilan o'tishi kerak. O'z navbatida ushbu metodik tavsyu bu muammolarni yechishga ko'maklashadi. Buning uchun har bir mavzu bo'yicha darsga tayyorlanishda mavzu muammolarini yaxshi tushunishda va ularni to'g'ri talqin qilishda o'qituvchilarning e'tiborini jalb qilishga imkon beruvchi masalalr keltirilgan. O'z-o'zidan savol tug'iladi, pedagogik texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etish zaruriyatiga sabab nimaq

O'qituvchilarning xususiy fanlar asoslarini O'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lif jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lif oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Ayni vaqtida Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'qituvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lif-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. "Ta'lif texnologiyasi" tushunchasi "ta'lif metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir.

O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lif texnologiyasi o'qituvchilar faoliyatiga nisbatan

yo‘naltirilgan bo‘lib, u o‘qituvchilarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz umumiylar o‘rtalim tizimida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni o‘rganib tahlil qiluvchi ekspert guruhlari shakllantirilib, xorijiy va mahalliy ta’lim texnologiyalari qayta ekspertizadan o‘tkazildi.



Zamonaviy didaktika jadal rivojlanib o‘zgaryotgan jamiyatning talablari va ta’limdagi amaliy ishlanmalarni aks attiruvchi yangi yondashuvlar ta’lim berish texnologiyalari bilan boyimoqda.

Ta’lim berishning nazariyasi va amaliyotida o‘qituvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan. Keyingi vaqtarda pedagoglarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o‘qitishning interfaol shakl va uslublarini o‘zlashtirishga qaratilgan. Ta’lim berish jarayoni quyida ko‘rsatilgan talablarga amal qilgan taqdirda samarali bo‘lishi va yaxshi natijalar berishi amalda isbotlangan:

1. O‘qituvchilar ta’lim olish uchun ochiq va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabat va hamkorlikka faol kirishib ketadilar;
2. O‘z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish uchun imkonga ega bo‘ladilar;
3. Ular yaqin vaqt ichida o‘z hayotida va professional faoliyatida duch kelishi muqarrar bo‘lgan vaziyatga amaliy jihatdan tayyorlanib olishlari mumkin;
4. O‘zlariga ishonishlari, o‘zlarini ifodalashga qo‘rmasliklari, xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin, qachonki ular buning uchun muhokama qilinmasalar va salbiy baholanmasalar.

Ta’lim olish jarayonining barcha ishtirokchilarining muloqot, kooperasiya va hamkorlik qilishiga asoslangan bilim berishning interfaol tartibi qo‘llanilganda, yuqorida keltirilgan talablarning deyarli barchasiga amal qilinadi.

Fizika fanini rivojlantirish qonuniyati ham barcha fanlar qatori jamiyatning amaliy ehtiyoji, talabidan kelib chiqadi. Bu talablar esa fan-texnikaning rivojlanishida, ishlab chiqarishning rivojlanishida, jamiyatning moddiy faravonligini o'sishiga olib keladi.

Yangi informatsion texnologiyalar bilan boyitilgan hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan o'qitish tizimlarini yaratish, tadbiq etish zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan foydalanish o'qitishning turli sohalarida bazasini shakllantirishga va o'qitish jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi. Fizikada o'tkazilgan eksperimentning pedagogika nuqtai nazaridan nazariya va amaliyotning birligini ta'minlaydi. O'quvchilar tabiat hodisalari va qonuniyatlarini eksperimental metodlar bilan tadqiq qilishni o'r ganadilar, ularda kuzatuvchanlikni, ilmiy tahlil malakasini tarbiyalaydi, fanga bo'lgan qiziqishini shuningdek kompetensiyaviy tushunchalarni kuchaytiradi.

Fizika qonunlarini bilish deganda, bu ularni ta'riflashni bilish bo'lmay, balki ularni aniq masalalarni yechishda tatbiq qilishni bilmox demakdir. Har qanday fizik masalani yechish uchun nazariy bilimga ega bo'lishimiz zarur. Masala yechishni bilish, o'qituvchilarni mustaqil ijodiy ishlashga yordam beradi, o'r ganilayotgan hodisaning tahlil qilishga o'r ganatadi, ularni keltirib chiqargan sabablarni (faktorlarni) ajratib olishga imkon beradi. Masalalar yechishdan asosiy maqsadimiz - fizik kattaliklar orasidagi o'zaro bog'lanishni o'r ganish, asosiy formulalarni esda saqlab qolish, fizik qonun, qoida va hodisalarni rivojlanib borayotgan hozirgi zamon fan va texnikasiga, kundalik hayotga tadbiq eta bilishni o'r ganishdir. Masalalar yechish - noma'lum fizik kattalikni masala shartida berilgan kattaliklar orqali ifodalashdir. Masalalarni sistematik yechib borish - hodisalarning fizik ma'nosini tushunib olishga, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qila bilish malakasini egallashga yordam beradi.

Mustaqil ravishda masala yechish jarayoni eng ko'p foyda keltiradigan jarayon bo'lib, quyidagi metodik qo'llanma buni amalga oshirishga qaratilgan.

Masalalarni yechishda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Eng avval, masalani sinchiklab o'qib, uning mazmunini tushunib olish zarur. Agar masalaning xarakateri imkon bersa, uni tushuntiruvchi rasm chizish kerak.

2. Masalani tahlil qilib, qanday obyektlar yoki jarayon haqida so'z ketayo'tganligini, qanday kattaliklar ularni aniqlayotganligini, ko'rيلayotgan hodisalar qanday fizik qonuniyatlarga bo'ysunishini aniqlash kerak.

3. Masalani yechishda foydali usullardan birini tanlab olish kerak.

4. Avval masalani umumiy ko‘rinishda yechib, bunda qidirilayo‘tgan kattalik masalada berilgan kattaliklar orqali ifodalanishi kerak.
5. Berilgan kattalaiklarni son qiymatlari bir sistema – SI sistemasida qo‘yilishi kerak.
6. Masala yechishni oxirida o‘lchov birligini mosligi tekshirilishi zarur.
7. Uy vazifasini tayyorlashda, ishlatilayotgan qonunlar va formulalar qisqa, ammo batafsil tushuntirilishi kerak.
8. Olingan javobni son qiymatini to‘g‘ri ekanligini baholang.

Ba’zi masalalarni yechimiga ham e’tibor qaratdik, lekin osonroq masalalarni o‘qituvchiixtiyoriga topshirdik.

Masala yechish jarayonida turli xildagi masalalar uchraydi:

- a) sifatga oid masalalar;
- b) hisoblashga oid masalalar;
- c) grafikka oid masalalar;
- d) eksperimentga oid masalalar.

Shuningdek o‘qituvchilarga masalalar yechishda hayotga bog‘lash imkon yaratishdan iboratdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.N.Sh.Turdiyev 6-Fizika darsligi Toshkent “Cho‘lpon”2009 yil
- 2.A.P.Rimkevich fizikadan masalalar to‘plami Toshkent”O‘qituvchi”1990y
- 3Ўзбекистон Республикаси узлуксиз мажбурий таълим тизимининг Давлат таълим стандартлари Физика фани бўйича узлуксиз мажбурий таълим тизимида битиравчиларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар Тошкент -2014
- 4.N.Sh.Turdiyev Fizika -6 О‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma Toshkent-2003y
5. Энциклопедия для детей Физика Россия “Аванта”-2000 г
6. А.В. Перышкина Физика-8 Россия Москва Дрофа-2010г
- 7.P.Xabibullayev . A. Baxromov. Fizika TOSHKENT-2009
- 8.Do’stov Shavkatjon Nosirovich va Do’stov G’ayrat Nosirovich”.fizikadan spravichnik “2010-NAVOIY
- 9.”6-sinflar uchun Fizikadan masalalar yyechish uslubiyoti”. A.Yusupov - A.Avloniy nomli RXTXQTMOMI dotsenti.M.Qodirov- tabiiy fanlar ta‘limi kafedrasasi katta o‘qituvchisi.